XORAZM VILOYATI YANGIBOZOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 1-noyabr | 603-12-178-Q/24 | Yangibozor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-152-sonli qarori hamda ushbu yuzadan Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi 413-12-0-Q/24-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-152-sonli qarori hamda ushbu yuzasidan Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi 413-12-0-Q/24-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-152-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2024-2025-yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumanda 2024-2025-yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining ayrim qarorlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi;

viloyat hokimining ayrim qarorlari 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova) hamda tegishli bo‘limlar, idoralar va tashkilotlar o‘zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Qo‘shnazarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi  **R.Jumaniyazov**

Yangibozor tuman hokimining
2024-yil 1-noyabrdagi
603-12-178-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-2025-yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha
CHORA-TADBIRLAR DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
I. Maktabgacha ta’limning o‘quv-metodik bazasini takomillashtirish					
1.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining reytingini shakllantirish.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini “Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” baholash mezoni asosida baholash va ularning reytingini shakllantirish.	2025/2026-o‘quv yilidan boshlab		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova), tuman hokimligi
2.	Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish.	Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish yuzasidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar berish.	2024-yil dekabr		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova), tuman hokimligi
3.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati”ni tashkil	1. Tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ro‘yxatini shakllantirish. 2. Maktabgacha ta’lim	2024-yil noyabr		

	etish.	tashkilotlarida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati”ni tashkil etish tartibini tasdiqlash. Bunda: “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati”ni tashkil etish uchun har bir tuman (shahar)da maktabgacha ta’lim tashkilotlarining direktor o‘rinbosarlaridan iborat trenerlar guruhini shakllantirish; malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda trenerlar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil etilishi; trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o‘rinbosarlari va pedagoglarga tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzuridagi maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalari hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama haq to‘lashni nazarda tutish. 3. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning namunaviy dasturini tasdiqlash	2024-yil dekabr 2024-yil dekabr		
4.	Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari	1. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari	2025-yil mart	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman maktabgacha va

	pedagoglarining kasbiy salohiyatini oshirish choralarini	pedagoglarining kasbiy salohiyatini oshirish yuzasidan malaka oshirish kurslari va o‘quv seminarlari tashkil etish.			maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova), tuman hokimligi
5.	Zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining idoraviy qurilish normalarini qayta ko‘rib chiqish.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining idoraviy qurilish normalarini qayta ko‘rib chiqish. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari binolarini zamonaviy, energiya tejamkor, ekologik toza qurilish materiallaridan foydalangan holda qurilishiga alohida e’tibor qaratish.	2024-yil dekabr		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova), tuman hokimligi
6.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining foydalanilmasdan bo‘sh turgan yer uchastkalarida davlat- xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish.	1.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lmagan, navbatliligi yuqori bo‘lgan mahallalardagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining foydalanilmasdan bo‘sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish uchun tanlovlar e’lon qilish. 2.Tanlov g‘oliblari bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-	2025-yil fevral Qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova), tuman hokimligi

		tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-sonli qarori talablari asosida bitim tuzish.			
7.	Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan mahsulotlar bilan ovqatlanishini tashkil etish.	1. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan qadoqlangan yoki quritilgan sut mahsulotlarini xarid qilishni tashkil etish. 2. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini sifatli non mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida: tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tomonidan ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun non mahsulotlarini tayyorlashda yodlangan tuz ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (yetkazib beriladigan non mahsulotlarining har bir turkumi uchun) talab qilib olish tartibini joriy qilish; ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilar zimmasiga davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yetkazib beriladigan non mahsulotlarini haftada kamida bir marotaba akkreditatsiyadan o‘tgan	2024-yil noyabr	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova), tuman hokimligi

		laboratoriyalarda sinovdan o‘tkazib, non mahsulotlari tarkibidagi zarur elementlar mavjudligi to‘g‘risida xulosa nusxasini buyurtmachiga taqdim etish vazifasini yuklash.			
8.	Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning sifatli ovqatlanishini ta’minlash jarayonlarini hamda ularga yetkazib berilayotgan mahsulotlarning sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish.	Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida sifatli va xavfsiz ovqatlanish tizimini joriy etish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida Ta’lim sohasida ovqatlanishni tashkil etish markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflarni viloyat hokimligiga kiritish.	2024-yil dekabr		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdirimova), tuman hokimligi